

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2019.Gr.01.06. RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MIRMAXMUDOV ERKIN RAXIMJANOVICH

**O‘ZBEKISTONDA GEODEZIK VA KARTOGRAFIK ISHLARNI
OPTIMALLASHTIRISH UCHUN KOSMIK JISMLARDAN
FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI**

11.00.06 - Geodeziya. Kartografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по географическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor (DSc) on geographical sciences

Mirmaxmudov Erkin Raximjanovich

О‘zbekistonda geodezik va kartografik ishlarni optimallashtirish uchun kosmik jismlardan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari3

Мирмахмудов Эркин Рахимжанович

Научно-практические основы использования космических тел для оптимизации геодезических и картографических работ Узбекистана.....27

Mirmakhmudov Erkin

Scientific and practical basis of the use of space bodies for optimization of geodetic and cartographic work in Uzbekistan.....53

Е‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2019.Gr.01.06. RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MIRMAXMUDOV ERKIN RAXIMJANOVICH

**O‘ZBEKISTONDA GEODEZIK VA KARTOGRAFIK ISHLARNI
OPTIMALLASHTIRISH UCHUN KOSMIK JISMLARDAN
FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI**

11.00.06 - Geodeziya. Kartografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.1.DSc/Gr15 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchisi:

Safarov Eshqobul Yuldashovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Reymov Polat Rasbergenovich
geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sayyidqosimov Sayyidjabbor Sayyidqosim o‘g‘li
texnika fanlari doktori, professor

Nuritdinov Salaxitdin Nasritdinovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

«Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Dsc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 27 aprel soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-14; faks: (99871) 246-02-24; E-mail: ik-geografiya.nuuz@mail.ru. O‘zbekiston Milliy universiteti, Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-67-71)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 17 aprel kuni tarqatildi.
(2024 yil 17 apreldagi 59-raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.M.Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, g.f.d., dotsent

K.A.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d.

Z.N.Tojiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlari uchun yagona geodezik koordinatalar sistemasini yaratish, Yer aylanishining aniq parametrlarini aniqlash geodeziya va geodinamikaning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bu muammolarning yechimiga xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT¹ Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyada global sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlari (GSYNT) dan foydalanish va regional-ellipsoid ishlab chiqish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida geodezik tashkilotlarda yagona koordinatalar sistemasini joriy etish sohasida sun'iy yo'ldosh navigatsiya o'lchashlari monitoringini olib borish va mahalliy koordinatalar sistemasidan umumiy geodezik koordinatalar sistemasiga o'tkazish uchun transformatsiya tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan, zamonaviy geotsentrik koordinatalar sistemalari, referens-ellipsoidlar, GSYNT, joyning fazoviy raqamli modellari va raqamli topografik xaritalarni takomillashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada, zamonaviy geografik axborot texnologiyalaridan foydalanib geodinamik va geodezik tarmoq punktlari koordinatalarining siljishini o'rganish, koordinata sistemalarini almashtirish parametrlarini va kartografik proeksiyaga differensial tuzatmalar qiymatini hisoblash hamda kosmik jismlar orbitalari elementlarini aniqlashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Respublikamizda muhandislik va kadastr ishlari uchun geodezik koordinatalar sistemalarini takomillashtirish va aniqligini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda va sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "... yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni so'zsiz ta'minlashda ochiq ma'lumotlar asosida ommaviy geoportalni joriy etish hamda ma'lumotlarni Milliy geoaxborot tizimi orqali davlat va xo'jalik boshqaruv organlariga hamda jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etish tartibini ishlab chiqish"² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, O'zbekiston Respublikasining tog'oldi hududlari va daryolarning qirg'oqbo'yi zonalaridagi geodezik ishlarda GSYNTni joriy qilish va qo'llashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 fevraldagi F-5209-son "O'zbekiston Respublikasidagi kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 2 iyuldagi O'RQ-626-son "Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 dekabrda 977-son "Geodeziya va kartografiya ishlarini ro'yxatga olish to'g'risidagi qarorni berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ BMT foydalanish buyicha qo'mita. Bosh assambleyasi. Ilmiy-texnik kuyi kumita. Ellikinchi sessiya. - Vena, Avstriya, 11-12 fevral, 2013 y.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirushning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. «Yer haqidagi fanlar» va IV «Axborotlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Inersial va geosentrik koordinatalar sistemalarini barqarorligini, koordinatalar sistemalarini almashtirish parametrlarini, umumiyer geodezik koordinatalar sistemasi va referens-ellipsoidlarning fundamental doimiylarini aniqlash, shuningdek, kosmik jismlar orbitalari elementlarini aniqlashtirish bo‘yicha yetakchi tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan Jet Propulsion Laboratory (JPL, AQSH), National Geospatial-Intelligence Agency (NGA, AQSH), GeoForschungsZentrum (GFZ, Germaniya), Deutsches Zentrum für Luft - und Raumfahrt e.V.(DLR, Germaniya), Centre National d'Études Spatiales (CNES, Fransiya), International Earth Rotation and Reference System Service (IERS, Fransiya), Kosmik tadqiqotlar instituti (IKI, Rossiya), Amaliy astronomiya instituti (IPA, Rossiya), Markaziy geodeziya, aerofotosyomka va kartografiya ilmiy-tadqiqot instituti (SNIIGAIK, Rossiya), Moskva davlat geodeziya va kartografiya universiteti (MGUGIK, Rossiya), Sibir davlat geotizimlar va texnologiyalar universiteti (SGUGIT, Rossiya) tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahonda umumiyer ellipsoidining geometrik va dinamik parametrlarini, geodezik koordinatalar sistemalarini almashtirish parametrlarini aniqlash va kosmik jismlar orbitalari elementlarini aniqlashtirish bo‘yicha qator ilmiy natijalar olingan, jumladan, yuqori aniqlikdagi koordinatalar tizimlarini yaratishda kosmik jismlardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan (Jet Propulsion Laboratory, AQSH), SRTM missiyasi asosida Yer yuzasining birinchi raqamli topografik kartasi va GRACE ma‘lumotlari bo‘yicha Yerning gravitatsion modeli hosil qilingan (National Geospatial-Intelligence Agency, AQSH), Voyajer kosmik apparatlari ma‘lumotlari bo‘yicha umumiyer ellipsoidi parametrlari qiymatlari aniqlashtirilgan, Yer yuzasidagi deformatsion jarayonlarni tadqiq qilish uchun Markaziy Osiyo Tektonik tarmog‘i hosil qilingan va Yer geoidining raqamli modeli ishlab chiqilgan (GeoForschungsZentrum, Germaniya), suv yuzasi topografiyasini va iqlim o‘zgarishini tadqiq qilish uchun DORIS xalqaro sun‘iy yo‘ldosh navigatsion tarmog‘i barpo qilingan (Centre National d'Études Spatiales, Fransiya), PZ-90 umumiyer geosentrik koordinatalar tizimi ishlab chiqilgan (Markaziy geodeziya, aerofotosyomka va kartografiya instituti, Rossiya).

Jahonda geodezik va kartografik ishlarni optimallashtirish uchun kosmik jismlardan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: alohida muhim hududlarni planli va balandlik asosini aniqlashtirish va joyning fazoviy raqamli modellarini yaratish; borish qiyin bo‘lgan joylarda geodezik o‘lchashlarni zamonaviy GNSS yordamida aniqligini oshirish; navigatsiya

³Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: www.geodesist.ru, www.navgeocom.ru, www.geoprofi.ru, www.ssga.ru, www.google.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

o'lchashlari natijalarini matematik qayta ishlash; raqamli kartografiya uchun uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish; yagona koordinatalar sistemasini yaratish uchun an'anaviy va sun'iy yo'ldosh o'lchashlarini birlashtirish; muhandislik vazifalari uchun zamonaviy geografik axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Geodeziya tarmog'i nuqtalarining koordinatalarini va kosmik jismlarning aniq pozitsiyalarini aniqlash jahonda keng amalga oshirilganligi sababli, kosmik geodeziya va sun'iy yo'ldosh sohasiga katta hissa qo'shgan yetakchi mutaxassislarning ishlarida uchraydi. Jumladan, xorijiy olimlardan Altiner Y., Clifford J. Mucnier, Gunter Seeber, Frike W., Hofmann-Wellenhof B., Huaan F., Moritz H., Reighber Ch., Vassileva K., Vondrak J., Kenyeres A. va boshqalarni ilmiy ishlarida uchraydi.

MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlarida Antonovoch K.M., Batrakov Yu.V., Bazlov Yu.A., Gedeonov D.D., Genike A.A., Demyanov G.V., Karpik A.P., Krasovsky F.N., Kaganovsky G.M., Kaufman M.B., Krasnorilov I.I., Kupriyanov A.O., Malkin Z.M., Mashimov M.M., Makarenko N.L., Medvedev Yu.D., Mixailov A.A., Molodensky M.S., Pankrushin V.K., Pobedinsky G.G., Pomeransev I.I., Chernetenko Yu.A., Sheglov V.P. va boshqalar kosmik geodeziya va geodinamika sohasida tadqiqotlar o'tkazgan.

O'zbekiston Respublikasida kosmik geodeziya va geodinamika sohasida Abdullaev T.M., Gulyamova L.X., Muborakov X., Rafikov V.A., Suyunov A.S., Reymov P.R., Safarov E.Y., Tashpulatov S.A. va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini qayd etish mumkin.

Respublikamizda kosmik apparatlarni kuzatish va ulardan geodeziya va kartografiya sohasida foydalanishda sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, barcha o'lchash usullarini qo'llashda, ya'ni klassik va sun'iy yo'ldosh geodezik o'lchashlarni birgalikda tenglashda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

BMT tomonidan tashkil etilgan kosmik texnologiyalar va GNSSdan foydalanish bo'yicha xalqaro konferensiyalarda (Moldova-2009, BAA-2010, Latviya-2012, Xorvatiya-2013, Rossiya-2015, 2017, Nepal-2016, Pokiston-2018), qo'shni respublikalar chegaralarida milliy ellipsoidlar va sun'iy yo'ldosh geodeziya tarmog'ining tayanch stansiyalarini yaratish zarurligi, va mintaqaviy geoidni rivojlantirish muhimligi qayd etildi. Shu bois BMT Bosh Assambleyasi dissertatsiya muallifining GNSSdan foydalanishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati haqidagi taklifini inobatga olgan holda rezolyutsiya qabul qildi va an'anaviy koordinata tizimlaridan foydalanauvchi Markaziy Osiyo respublikalari uchun yagona koordinatalar tizimini joriy etishni tavsiya qildi.

EUPOS bo'yicha xalqaro ilmiy yig'ilishlarda GPS ma'lumotlarini standartlashtirish va almashish, shuningdek, sun'iy yo'ldosh geodeziya o'lchovlaridan foydalanuvchilar sonini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar qabul qilindi. Ushbu xalqaro uchrashuvlarda dissertatsiya muallifi, kosmik jismlarning pozitsion kuzatuvlari asosida geodezik tarmoqni takomillashtirish va topografik xaritalarning matematik asoslarini takomillashtirish usulini taklif qildi, shuningdek, EUPOS ni qit'aning Osiyo qismiga kengaytirish bo'yicha tavsiyalar berdi. Mazkur

tadqiqot ishi aynan yuqorida keltirilgan muammolarni hal etishga bag'ishlanganligi bilan oldingilardan farq qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq GNTP - 10, P - 6.1.16 - NIR "Optik kuzatishlar asosida kosmik jismlarning trayektoriyasini qurish" (2003 – 2005 yy.), Yer sirtidan turli balandliklarda harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash uchun 1:500 000 masshtabli raqamli xaritasini yaratish (2005-2007 yy.), "SpaceCom" (2019 y.) mavzusidagi xalqaro loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasining muhim obyektlari atrofida Yerning sun'iy yo'ldoshlarini kuzatish natijasida geodezik tarmoqlarning planli va balandlik koordinatalarini optimallashtirishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kosmik jismlarni klassik va sun'iy yo'ldosh o'lchashlari orqali Yerni aylanish o'qining qutbsiz o'zgarishini va ikkita koordinata tizim (CK-42, WGS-84) yordamida topografik xaritalarning Gauss-Kryuger proeksiyasidagi geografik koordinatalari aniqligini tahlil qilish;

geosinxron va geodezik sun'iy yo'ldoshlarning yuqori aniqlikdagi toposentrik koordinatalarni hisoblash uchun geosentrik koordinatalar tizimi harakat trayektoriyasidagi tortishish va gravitatsion bo'lmagan tebranishlarni hisobga olgan holda kosmik jismlarning oraliq orbitasini hisoblash metodini ishlab chiqish;

global navigatsion yo'ldosh tizimi o'lchovlari yordamida O'rta Osiyo geodinamik tarmog'i nuqtalari uchun deformatsiya siljishlari parametrlarini hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish;

global navigatsion yo'ldosh tizimi asosida WGS-84 tizimida O'zbekiston Respublikasining asosiy daryolari qirg'oq bo'yi zonasidagi gidrologik postlar sath ustunlarining balandligi va koordinatalarini aniqlash metodikasini ishlab chiqish;

nuqtalarning fazoviy koordinatalarini hisoblash uchun sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va Yerdagi elektron-optik o'lchovlardan foydalangan holda tog'-kon inshootlari atrofidagi geodezik tarmoqlar zichligini optimallashtirish usulini ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasining tog'li va tog' oldi hududlari relyefining 2 va 3 o'lchamli raqamli modelini yaratishda Yerning sun'iy yo'ldoshlari va geoaxborot texnologiyalari orqali o'lchash usullarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston Respublikasi geodezik va geodinamik tarmoq punktlari, gidrometeorologik reperlar, jahon geodeziya tizimining alohida stansiyalari olingan.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston Respublikasining geodezik va geodinamik tarmoq nuqtalarining geografik koordinatalarini siljish qiymatlarini hamda kosmik jismlarni kuzatish, gidrologik stansiyalar reperlarining planli-balandlik o'rnini aniqlash va alohida muhim hududlar xaritalarini yaratish masalalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida parametrik, kovariatsion, trilateratsiya, matematik statistika, hisoblash matematikasi algoritmlari, shuningdek, Gauss va matematik kartografiyaning loyihalash usullari qoʻllanilgan. Shu bilan bir qatorda, muallif tomonidan ishlab chiqilgan oraliq orbitalar va reduksiyalash usullaridan tadqiqotlarda foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yer usti va sunʼiy yoʻldosh oʻlchashlari natijalari boʻyicha amalda qoʻllanilayotgan CK-42 va WGS-84 koordinatalari uchun Gauss-Kryuger kartografik preksiyasi toʻgʻri burchakli koordinatalariga differensial tuzatmalar metodi ishlab chiqilgan;

geosentrik koordinatalar tizimi harakat trayektoriyasidagi tortishish va gravitatsion boʻlmagan tebranishlarni hisobga olgan holda Enke metodi takomillashtirilgan va kosmik jismlarning oraliq orbitasini hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

Markaziy Osiyo tektonik va Davlat geodezik tarmoqlari uchun global sunʼiy yoʻldosh navigatsiya tizimi (GNSS) yordamida navigatsion oʻlchovlar va Yer mantiyasining yuqori qatlamlarida deformatsion siljishlarni hisoblash metodlari (Molodenskiy, Gelmert) takomillashtirilgan;

Global sunʼiy yoʻldosh navigatsion tizimi yordamida Oʻzbekiston asosiy daryolarining qirgʻoq boʻyi zonasida gidrologik stansiyalarning suv sathi postlari balandliklari va koordinatalarini aniqlash metodi ishlab chiqilgan;

Togʻ-kon obyektlari atrofidagi geodezik zichlash tarmogʻi punktlarining geofazoviy koordinatalarini hisoblash uchun sunʼiy yoʻldosh maʼlumotlari va yer usti elektron-optik oʻlchovlardan foydalangan holda optimallashtirish usuli ishlab chiqilgan;

Geoaxborot texnologiyalari va sunʼiy yoʻldosh navigatsion dala oʻlchash maʼlumotlaridan foydalangan holda togʻli hududlarning aniq fazoviy raqamli relyef modellari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

CK-42 va WGS-84 koordinata tizimlaridan foydalanish uchun Gauss-Kryuger proeksiyasining geografik va toʻgʻriburchakli koordinatalariga differensial tuzatmalar qiymatlari hisoblab chiqilgan;

geosentrik koordinatalar tizimiga nisbatan yuqori masofada aylanuvchi kosmik jismlarni kuzatish usuli bilan Yerning geopotensial va atmosfera qarshiligining taʼsiri aniqlangan;

kosmik apparatning haqiqiy harakatining differensial tenglamalarida 2 va 3-darajali hosilalari uchun oraliq orbitaning Kepler trayektoriyasidan ogʻish holati baholangan;

karyerlar boshlangʻich bazisi asos nuqtalarining yuqori aniqlikdagi koordinatalarini GNSS oʻlchashlar asosida baholangan;

sunʼiy yoʻldosh navigatsiya maʼlumotlari asosida davlat geodezik tarmoqlari nuqtalari va gidrologik postlarining asosiy reperlari baholangan;

sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan va GATdan foydalanib, O'zbekiston Respublikasining xaritalarini yaratish maqsadida, uning tog'li hududlarining fazoviy raqamli relyef modellari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi kosmik jismlarning optik va radiotexnikaviy kuzatuvlari, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan davlat geodezik va gidrologik tarmoqlari punktlarida dala GNSS o'lchovlaridan foydalanish, Yerni masofadan zondlash yo'ldoshlari ERS1,2, Lageos1 geodezik yo'ldoshlari va raqamli balandlik modellari uchun zamonaviy geoaxborot texnologiyalaridan foydalangan holda dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari boshqa mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning ilgari e'lon qilingan natijalariga mos keladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati koordinata tizimlaridan foydalanish samaradorligini va oraliq orbitalarga asoslangan kosmik jismlarning trayektoriyasini aniqlashning yangi usullarini, 2 va 3-darajali hosilalarning yaqinlashishi bo'yicha, differensiallarni integratsiyalashning buzilmagan harakat tenglamalari raqamli usullaridan foydalangan holda ishlab chiqish, shuningdek, O'rta Osiyo geodinamik tarmog'i nuqtalari va O'zbekiston Respublikasining, ayniqsa, muhim obyektlar koordinatalarini aniqlashtirilgani bilan izoqlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kosmik jismlarning optik va radionavigatsiya kuzatuvlari asosida olingan zamonaviy WGS-84 koordinata tizimidan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi geodeziya va kartografiya ishlari uchun optimal koordinatalar tizimini tanlash, qabul qilish qiyin bo'lgan hududlarda muhandislik inshootlarini loyihalash uchun klassik va sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan foydalangan holda qurilgan raqamli balandlik modellaridan foydalanish masalalarini amalga oshirishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Kosmik jismlarning optik kuzatuvlari va sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlari ma'lumotlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Yer usti va sun'iy yo'ldosh o'lchashlari natijalari bo'yicha geodezik koordinatalar sistemasini optimallashtirish va ularning almashtirish metodlarining takomillashtirilgan nazariy asoslari "Geodeziya" nomli darslikka singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 30 iyundagi 359-395-son guvohnomasi). Natijada, talabalarda O'zbekiston Respublikasi hududlarining 1:5000 - 1:100000 topografik xaritalarini tuzishda qo'llaniladigan Gauss-Kryuger proeksiyasiga differensial tuzatmalar kiritish kompetensiyasini oshirish imkoniyatini bergan;

geosentrik koordinatalar tizimi harakat trayektoriyasidagi tortishish va gravitatsion bo'lmagan tebranishlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan kosmik jismlarning oraliq orbitasini hisoblash metodi va algoritmi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligida geosinxron va geodezik sun'iy yo'ldoshlarning yuqori aniqlikdagi toposentrik koordinatalarini hisoblashda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 07 apreldagi 03-08-118 son

ma'lumotnomasi). Natijada, global umumiy ellipsoidning parametrlarini va fundamental koordinatalar tizimiga kiritilgan tuzatishlar qiymatlarini aniqlashtirish imkonini bergan;

Markaziy Osiyo tektonik va Davlat geodezik tarmoqlari uchun ishlab chiqilgan GNSS qabul qilgichlar yordamida navigatsion o'lchovlar va Yer mantiyasining yuqori qatlamlarida deformatsion siljishlarni hisoblash metodlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligida O'zbekiston Respublikasining global geodezik tarmog'ini umumiy tenglashtirishda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 07 apreldagi 03-08-118 son ma'lumotnomasi). Natijada, geodinamik punktlarni va alohida muhim obyektlarning koordinatalari qaytadan aniqlash imkoniyatini bergan;

Global navigatsion yo'ldosh tizimi yordamida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi asosiy daryolarining qirg'oq bo'yi zonasida gidrologik stansiyalarni suv sathi postlari balandliklari va koordinatalarini aniqlashtirish metodi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligida WGS 84 sistemasida gidrologik postlarning to'g'ri burchakli koordinatalarini aniq hisoblashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 07 apreldagi 03-08-118 son ma'lumotnomasi). Natijada, gidrologik postlar koordinatalariga nisbatan suv sathi o'zgarishini aniq o'lchash imkonini bergan;

Tog'-kon inshootlari yon atrofidagi joylarni yuqori aniqlikdagi yer sun'iy yo'ldosh tizimlaridan va elektron raqamli asboblardan foydalanib ishlab chiqilgan geodezik tarmoqlarni zichlashtirishni optimallashtirish metodi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligida geodezik tarmoq punktlarini fazoviy to'g'ri burchakli koordinatalari hisoblab chiqishda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 07 apreldagi 03-08-118 son ma'lumotnomasi). Natijada, karyerlar atrofida marksheyderlik va yer qazish ishlari uchun foydalanish imkonini bergan;

zamonaviy geoaxborot texnologiyalari va sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan foydalangan holda tog'li hududlarning ishlab chiqilgan aniq fazoviy raqamli relyef modellari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligida O'zbekiston milliy atlasini uchun respublika va unga chegaradosh hududlarning 2 va 3 o'lchamli raqamli xaritalari yaratishda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023 yil 07 apreldagi 03-08-118 son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Milliy atlasining "Relyef" bo'limi mazmunini boyitish, ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari BMT va EUPOSning 15 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarida, 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 44 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta darslik, 1 ta o'quv

qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shulardan 11 tasi respublika va 1 tasi Scopus bazasidagi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Koordinata sistemalarini optimallashtirish”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi topografik-geodezik bo‘limlarida koordinata sistemalaridan foydalanishning nazariy va amaliy masalalari tahlil qilingan. Fundamental astronomik va geodezik punktlar koordinatalarining aniqligi, Yerning haqiqiy qutbining siljishini aniqlash uchun geografik kenglikning o‘zgaruvchanligi tadqiq qilingan. Yulduzlarini o‘lchash katalogi natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘rtacha kenglikni aniqlashning qiymati $\pm 0,15 - 0,30''$ tashkil qiladi. Kenglik o‘zgarishlarini tahlil qilish asosida lahzali qutb o‘qining harakat tezligi qiymati (yiliga 2,5 sm) ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotlarda lazer texnologiyalarining joriy etilishi bilan yer o‘qi harakatidagi ayrim qonuniyatlarni o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi, deb ta’kidlanadi. Lazer o‘lchovlari bo‘yicha qutb o‘rmini aniqlashning qiymati besh kunlik intervalda 0,01-0,03'' ni tashkil etdi. Agar geografik qutb koordinatalarining siljishini aniqlashning barcha usullari natijalari ko‘rib chiqilsa, u holda Yerning aylanish o‘qida o‘zgarish yo‘nalishi ayon bo‘ladi. Shuningdek, bu usullar kuzatuvlarni optimallashtirishga va punktlar koordinatalarining barqarorligiga ta’sir etuvchi mikroplitalar tektonikasida nozik ta’sirlarni aniqlash zarurligi kelib chiqadi. Masalan, Kitob kenglik stansiyasining KIT3 punkti uchun koordinatalardagi o‘zgarishlar O‘zbekiston Milliy universiteti Geodeziya va geoinformatika kafedrasida va SEGAL laboratoriyasi (Portugaliya) o‘rtasidagi xalqaro shartnomaga asosan 1998-2019 yillar oralig‘ida aniqlangan. Bunda asosiy tendensiya uzoqlik bo‘yicha yiliga 28.05 mm tezlikda sodir bo‘ladi va tezlik qiymatining o‘rta kvadrat xatosi ± 0.36 mm/yil ni tashkil etadi.

O‘lchashlar hali ham qo‘llaniladigan va o‘z qiymatini yo‘qotmagan qabul qilingan CK-42 koordinata sistemasida amalga oshirilganligi sababli, qabul qilingan referens-ellipsoidning aniqligi va ishonchliligi haqida savol tug‘iladi.

2018 yildan boshlab O‘zbekistonda WGS-84 koordinatalar sistemasi qonuniy ravishda qabul qilingan bo‘lib, kadastr syomkasida qo‘llaniladi. Tabiiyki, CK-42 dan WGS-84 ga koordinatalarni ko‘chirishda taqribiy usul qo‘llaniladi. Bu, ayniqsa, geografik koordinatalar sistemasi va Krasovskiy referens-ellipsoidiga asoslangan

Gauss-Kryuger proeksiyasining to‘g‘ri burchakli koordinatalar sistemasi topografik xaritalarga tegishlidir. WGS-84 koordinata sistemasidan foydalanish CK-42 topografik xaritalaridagi obyektlar koordinatalarida sezilarli siljishlar bilan birga keladi, chunki ellipsoidlar parametrlarida farq bor. Shuning uchun Gauss-Kryuger proeksiyasida koordinatalarni hisoblash algoritmi ishlab chiqildi, bu yerda ikkita koordinata sistemasi orasidagi chiziqli siljishlarning qiymatlari aniqlandi. Ellipsoidlar parametrlari, kenglik va uzoqlik qiymatlaridan foydalanib, topografik xaritalar uchun to‘g‘riburchakli koordinatalarni hisoblash va ular orasidagi tuzatmani aniqlash mumkin (1-jadval).

$$\left. \begin{aligned} x &= X + a_2 l^2 + a_4 l^4 + a_6 l^6 \dots + \Delta x \\ y &= b_1 l + b_3 l^3 + b_5 l^5 \dots + \Delta y \end{aligned} \right\} \quad (1)$$

1-jadval

WGS-84 va CK-42 koordinatalar sistemalarida koordinatalar farqi

№	Mashtab	$\Delta X_{\text{WGS84-CK42(mm)}}$	$\Delta Y_{\text{WGS84-CK42(mm)}}$
1	1:5 000	1.80	12.8
2	1:10 000	0.90	6.40
3	1:25 000	0.30	2.56
4	1:50 000	0.18	1.28
5	1:100 000	0.09	0.64

Izoh: Koordinatalar muallif tomonidan hisoblangan.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xarita masshtabi qanchalik yirik bo‘lsa, ikkala sistema o‘rtasidagi farq shunchalik katta bo‘ladi. Agar Gauss-Kryuger koordinata to‘rini global ellipsoid parametrlari bilan xaritaga qo‘yilsa, u holda u topografik xarita masshtabiga qarab koordinata to‘ridan ma‘lum masofaga siljiydi. Ikkita koordinatalar sistemasi orasidagi Eyler burilish burchaklarini hisobga olgan holda, kartografik to‘r siljiydi va buriladi, unga tuzatma tayanch geodezik punktlari va GNYT ma‘lumotlarini tenglash orqali aniqlanadi.

DGT va sun‘iy yo‘ldosh geodezik tarmog‘ining alohida punktlarining hisoblangan koordinatalari natijalari bo‘yicha uzoqlik va kenglik uchun farqlar olingan. Bunda topografik xaritalarning koordinata to‘rining deformatsiyasiga olib keladigan vaqt oralig‘ini hisobga olish kerak. Koordinatalar sistemasiga tuzatmalarni klassik va zamonaviy o‘lchash usullarini qayta ishlash asosida aniq topish mumkin. Biroq, kichik hududlar uchun konform yoki ortogonal usul eng maqbul hisoblanadi, chunki geodezik tarmoq koordinatalari orttirmasining past aniqlikdagi qiymatlari bilan aniqroq sun‘iy yo‘ldosh aniqlashi muvofiqlashtiriladi va bu holat hisoblashlarning aniqligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida punktlar koordinatalarini hisoblash asosida koordinatalar sistemasini optimallashtirishning nazariy asoslari ishlab chiqildi va kartografik proeksiyani o‘zgartirish orqali topografik xaritalarning to‘g‘riburchakli koordinatalarining og‘ishlarini minimallashtirish usullari taklif qilindi.

“Sun’iy yo’ldosh kuzatuvlarining usullarini tahlil qilish” deb nomlangan ikkinchi bobda, asosiy e’tibor lazerli kuzatishlar va ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladigan sun’iy yo’ldosh navigatsiyasi joylashuvini aniqlashga qaratilgan. Optimal qayd etish usullari ishlab chiqildi, bu yer sun’iy yo’ldoshning ekvatorial va azimutal koordinatalarini hisoblash aniqligini oshirish imkonini berdi.

Burchak o‘lchashlaridan orbitaning $\Omega_0, \omega_0, a_0, e_0, i_0, \tau_0$ boshlang‘ich elementlarini aniqlash algoritmi tuzilgan. Sun’iy yo’ldoshlarni geosinxron kuzatish uchun yulduz iziga nisbatan sun’iy yo’ldoshlarni qayd etish metodikasi ishlab chiqildi. Sun’iy yo’ldosh koordinatalarini reduksiyalash Tyorner formulasi bo‘yicha amalga oshirildi. 2-jadvalda 9 ta DZT hisoblash natijalari ko‘rsatilgan.

2-jadval

Geosinxron sun’iy yo’ldoshlarning toposentrik koordinatalari

№	Sana	Kuzatish payti	α_{1950}	δ_{1950}
772	2.10.1989	18 ^h 30 ^m 00 ^s	21 ^h 13 ^m 21. ^s 91	- 6 ^o 23' 29.3"
772	2.10.1989	19 30 00	21 13 23.99	- 6 26 56.9
772	3.10.1989	20 00 00	22 47 37.48	- 6 27 34.6
638	3.10.1989	20 15 00	22 31 15.42	- 6 48 36.0
772	4.10.1989	20 25 00	23 16 21.67	- 6 29 27.5
772	5.10.1989	18 40 00	21 29 24.00	- 7 43 06.0
772	11.05.1990	20 00 00	12 54 07.59	- 7 20 49.9
769	19.05.1990	20 55 00	16 35 00.00	- 6 05 00.0
772	10.07.1990	20 55 00	17 49 56.70	- 6 50 35.8


Izoh: Koordinatalar muallif tomonidan hisoblangan.

Parallel ravishda “Maydanak” baland tog‘ o‘lchash majmuasida televizion tizim yordamida geosinxron sun’iy yo’ldoshlarning kuzatuvlari o‘tkazildi. Sun’iy yo’ldoshlarning toposentrik ekvatorial koordinatalari ham tanlangan tayanch yulduzlarga nisbatan Shlezinger usuli bo‘yicha hisoblab chiqildi:

$$\left. \begin{aligned} \xi &= F \frac{\cos \delta \cdot \sin(\alpha - A)}{\sin \delta \cdot \sin D + \cos \delta \cdot \cos D \cos(\alpha - A)} \\ \eta &= F \frac{\sin \delta \cdot \sin D - \cos \delta \cdot \sin D \cdot \cos(\alpha - A)}{\sin \delta \cdot \sin D + \cos \delta \cdot \sin D \cdot \cos(\alpha - A)} \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

bu yerda α va δ - tayanch yulduzning koordinatalari, A va D - optik markazning taqribiy koordinatalari, ξ va η - sun’iy yo’ldoshning to‘g‘riburchakli koordinatalari.


Geosinxron sun’iy yo’ldoshning o‘rta kvadratik xatosi talabga mos holda $\pm 2,0''$ olindi, bu televizion tizimlar uchun qoniqarli aniqlikni ko‘rsatadi. O‘lchashlarning afzalligi – mashina tashuvchisidagi yulduzlar katalogidan foydalanib operativ o‘lchashdir. 1-rasmda geosinxron sun’iy yo’ldosh 22880 ning ekvatorial koordinatalar sistemasidagi kuzatuv aniqligi keltirilgan, unndan ko‘rinib turibdiki, sun’iy yo’ldosh koordinatalarining to‘g‘ri ko‘tarilishi va og‘ishidagi aniqlik deyarli bir xil.



1-rasm. Vaqt o'tishi bilan MZT kuzatuvlari aniqligining o'zgarishi

Hozirgi vaqtda lazerli kuzatishlar optik usullar orasida eng anig'i hisoblanadi, chunki yo'ldoshlarda masofani tezroq aniqlashga yordam beradigan lazer qaytargichlar o'rnatilgan. Masalan, 426 qaytargichdan iborat "Lageos 1" geodezik sun'iy yo'ldoshi Yer yuzasidan taxminan 6000 km balandlikdagi aylana orbitaga chiqarildi va Kitob xalqaro kenglik stansiyasi va Maydanak o'lchash majmuasi hududida muntazam kuzatildi.

Kuzatishlar natijalariga ko'ra, ishlab chiqilgan dastur bo'yicha olingan toposentrik koordinatalar va integrallashning sonli usuli bilan hisoblangan efemerid qiymatlari taqqoslandi. Lageos1 sun'iy yo'ldoshi uchun azimut A va balandlik h bo'yicha efemerid ma'lumotlaridan koordinatalarga kuzatilgan qiymatlarning og'ishi olingan (2-rasm).



2-rasm. Lageos-1 uchun azimut va balandlik bo'yicha farqlar

Radiotexnika o'lchash usullarining rivojlanishi munosabati bilan barcha navigatsiya tizimlaridan signallarni qabul qiluvchi universal sun'iy yo'ldosh geodezik qabul qilgichlar ishlab chiqildi. Ba'zi sun'iy yo'ldoshlarda o'lchashning sistematik xatolarni bartaraf etish va dispersiya tahlili uchun optik qaytargichlar o'rnatilgan.

1980-90 yillarda bir qancha universal va mobil global sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlari GPS, GLONASS, BEIDOU, GALLILEO, QZSS paydo bo'ldi, ular aniq vaqt rejimida koordinatalarni turli xil ko'chirish tizimlaridan foydalanib, sezilarli masofaga uzatish imkonini beradi.

Tadqiqotning uchinchi bobi optik o'lchashlar natijalari bo'yicha kosmik jismlar «**Orbitasining elementlari aniqligini tadqiq qilish**»ga bag'ishlangan. Sun'iy yo'ldoshlarning orbitalarini aniqlash uchun differensial tenglamalarni integrallashning raqamli usullari qo'llaniladi, ular uzoq vaqt oralig'ida tananing harakat trayektoriyasini hisoblash imkonini beradi. Kosmik jism orbitasining tortish markazi parametrining o'zgartirishi orqali aniqlash va aniqlik kiritishning yangi usuli taqdim etildi, buning natijasida nafaqat ikkinchi, balki uchinchi tartibli hosilalar harakat trayektoriyasiga tegishli bo'ladi.

Haqiqiy orbitani quyidagi ifoda bilan ifodalash mumkin

$$\bar{r} = \dot{r}_0 t + \ddot{r}_0 \left(\frac{t^2}{2}\right) + \dddot{r}_0 \left(\frac{t^3}{6}\right) + \dots, \quad (3)$$


u holda tebranuvchi orbitaning ifodasini quyidagicha yozish mumkin

$$\bar{\rho} = \dot{\rho}_0 t + \ddot{\rho}_0 \left(\frac{t^2}{2}\right) + \dddot{\rho}_0 \left(\frac{t^3}{6}\right) + \dots. \quad (4)$$

Qo'zg'algan va oraliq orbitalar o'rtasidagi hosilalarning qiymatidagi farqni quyidagicha ifodalash mumkin.


$$(\ddot{\rho}_0 - \ddot{r}_0)^2 = \left\{ \left[\dot{r}_0 - 3 \frac{\ddot{r}_0}{|\dot{r}_0|} \left(\frac{\ddot{r}_0}{|\dot{r}_0|} \cdot \dot{r}_0 \right) \right] \left(-\frac{|\dot{r}_0|}{\rho_0} \right) - \ddot{r}_0 \right\}^2. \quad (5)$$

Differensial tenglamaning hosilalari darajasining oshishi bilan oraliq orbita qo'zg'aluvchi trayektoriyaga yaqinlashishi o'rganildi, bu esa soxta massadan foydalanib ishlab chiqilgan dasturning to'g'riligini ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. Oraliq orbitalarning qo'zg'alganidan chetlanishlari


O'zbekistondagi 25 ta jahon stansiyasi va 2 ta rasadxonadan olingan kuzatishlarning to'g'riligini baholash uchun kosmik jismlarning 198 ta kuzatuvidan foydalanilgan. Tayanch orbita sifatida markaziy tananing soxta massasi asosida olingan oraliq orbita ishlatilgan. Hisoblash natijalari shuni ko'rsatdiki, 2 ta yer usti observatoriyasi (Kitob va Toshkent) yordamida koordinatalar va tezlik komponentlarini aniqlashtirish aniqligi 0,709" ni, 25 ta observatoriya uchun esa 0,877" ni tashkil etdi, bu kuzatishlarning ishonchliligi va optimalligini ko'rsatadi. Misol sifatida ERS1 sun'iy yo'ldoshidan foydalanib, kuzatilgan koordinatalar azimut va balandlik bo'yicha hisoblangan qiymatlar (O-C) bilan taqqoslandi (4-rasm).



4-rasm. ERS-1 sun'iy yo'ldoshining azimut va balandlik bo'yicha farqlarining qiymatlari

Kuzatilgan va hisoblangan koordinatalar farqining tahlili shuni ko'rsatadiki, $(O-C)_\alpha$ ni $(O-C)_\delta$ bilan solishtirganda ma'lum bir tendensiyaga ega. O'zgarish sababi sun'iy yo'ldoshning o'z harakati va azimutal oynali teleskop (AZT-24) alidadasining aylanish o'qlariga kichik tuzatmalar ta'siri, ya'ni doimiy sistematik tuzatma mavjud bo'lib, u meteorologik usul bilan aniqlanishi kerak. Odatda bunday o'zgarish bir nechta kuzatuv stansiyalaridan olingan ma'lumotlardan foydalanganda, tartibga solish usuli yoki normal nuqta interpolyatsiyasidan foydalanganda oson aniqlanadi. Bunday holda, qo'zg'almagan harakatning differensial tenglamalarini integrallashning raqamli usuli optimal hisoblanadi. Ushbu sun'iy yo'ldosh uchun toposentrik masofalarni hisoblash bo'yicha algoritmik dastur ishlab chiqilgan bo'lib, u J_{19} gacha bo'lgan zonal garmonikalarning qiymatlarini va atmosfera qarshiligini hisobga oladi (5-rasm). ERS1 qo'zg'algan harakatning differensial tenglamasini raqamli integrallash Kitobda o'tkazilgan 2 haftalik kuzatishlar asosida amalga oshirildi.

Algoritmik dastur Yer yuzasidan 1000 km balandlikda joylashgan sun'iy yo'ldoshlar uchun aniqroq va to'g'riroq hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, zonal garmonika darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, sun'iy yo'ldoshgacha bo'lgan masofa shunchalik aniq topiladi, ya'ni kosmik jism uzoqlashgan sari geopotensialning ta'siri kamayadi, atmosferaning ta'siri esa Yer yuzasidan ma'lum balandlikkacha seziladi.



5-rasm. Zonal garmonika va atmosferaning sun'iy yo'ldosh trayektoriyasiga ta'siri

Kuzatishlar asosida nafaqat punktlarning orbitalari va koordinatalarini aniqlash, balki yulduzlar kataloglarining nol punktlarini ham aniqlashtirish mumkin. Koordinatalarning kuzatilgan va efemerid qiymatlari o‘rtasidagi farq kuzatuvlar o‘tkazilgan koordinatalar sistemasidagi xatolar va efemeridni hisoblashda foydalanilgan obyekt va Yer elementlarini noaniqliklari natijasida talqin etiladi. Kuzatilgan va efemerid qiymatlar o‘rtasidagi farq kosmik jism va Yer orbitasining elementlari orqali tenglamalar bilan ifodalanishi mumkin:

$$\left. \begin{aligned} \alpha_H - \alpha_e &= \Delta\alpha_0 + \sum_{i=1}^6 \frac{\partial\alpha}{\partial E_i} \Delta E_i + \sum_{i=1}^5 \frac{\partial\alpha}{\partial E'_i} \Delta E'_i, \\ \delta_H - \delta_e &= \Delta\delta_0 + \sum_{i=1}^6 \frac{\partial\delta}{\partial E_i} \Delta E_i + \sum_{i=1}^5 \frac{\partial\delta}{\partial E'_i} \Delta E'_i, \end{aligned} \right\} \quad (6)$$

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi «**Geodezik tarmoqning aniqligini oshirish**»ga bag‘ishlangan. Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish punktlar koordinatalarining aniqligini oshirishga olib keldi va milliy referens koordinata sistemasini (MRKS) loyihalashni boshlash imkonini berdi. MRKSni yaratish topografik-geodezik va injenerlik-qidiruv ishlarida muhim rol o‘ynaydi. Bu, ayniqsa, qirg‘oq bo‘yi zonalarini bo‘ylab va aholi zich joylashgan hududlarda qurilayotgan yirik obyektlar va inshootlar uchun raqamli relyef modellarini ishlab chiqishda juda muhimdir. Bular respublikaning milliy fazoviy ma‘lumotlar infratuzilmasining ajralmas qismi bo‘lib, fundamental astronomik-geodezik tarmog‘iga (FAGT) tayanish va lazer va radiotexnika o‘lchashlari natijalaridan foydalanishni talab etadi. FAGTning asosiy punktlari bo‘lib, sun‘iy yo‘ldosh lazerli lokatsiya stansiyalari, Yerning aylanish xizmati punktlari va boshqa sun‘iy yo‘ldosh kuzatuv punktlarini tashkil etadi. O‘rta Osiyo geodinamik tarmog‘ining ALMA, CIRC, ANGR punktlarida bajarilgan o‘lchash va hisoblashlar asosida DGT punktlari koordinatalarining aniqligini oshirish uchun ushbu punktlardan foydalanish tavsiya etiladi (3-jadval).

3-jadval

O‘zMU va GFZ (Germaniya) ma‘lumotlari bo‘yicha CATS punktlari koordinatalari

Punkt-lar	B _{wgs84} (GFZ) 0 / //	L _{wgs84} (GFZ) 0 / //	N _{wgs84} m	B _{ck42} (NUU) 0 / //	L _{ck42} (NUU) 0 / //
ALMA	40 49 42.9	69 43 49.0	737.9	40 49 42.765	69 43 52.043
CIRC	41 34 20.8	69 39 39.0	771.2	41 34 20.604	69 39 42.084
ANGR	41 06 07.7	70 04 53.7	1307.3	41 06 07.532	70 04 56.726
DENA	38 14 06.7	67 52 48.8	477.5	38 14 06.829	67 52 51.879

Izoh: Koordinatalar muallif tomonidan hisoblangan.

Tayanch geodezik tarmoqni yaratishda sun‘iy yo‘ldosh texnologiyalaridan foydalanish geodezik tarmoq punktlarining yuqori aniqlikdagi koordinatalarini aniqlash va ularni tenglashda muhim bosqich hisoblanadi. Biroq tog‘-kon obyektlari

yaqinida tayanch geodezik tarmoqlarni yaratishning ilmiy asoslangan uslubi to'liq ishlab chiqilmagan.

Mavjud klassik tenglash usullari sun'iy yo'ldosh geodezik tarmoqlarni tenglashdan tenglashning tarkibi va usuli, albatta, punktlar koordinatalarining aniqligi bilan farq qiladi. Ayniqsa, muhim obyektlar yaqinida elektron-optik va radiotexnika usullarini birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunday o'lchash usuli "Muruntov" tog'-kon obyektida, keyinroq "Kalmakir" karyerida amalga oshirilgan. Ushbu obyektlar yaqinida DGT va Markaziy Osiyo geodinamik tarmog'i (CATS) punktlari joylashgan. DGT punktlarini rekognosirovkasida piramidalarning yuqori qismlari deformatsiyaga uchraganligi va ba'zi inshootlarning o'zi ham topilmaganligi ma'lum bo'ldi. Ularning ko'pchiligida metall quvurlar ko'rinishidagi grunt markazlari mavjud, ular GNSS o'lchashlari uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu punktlarda o'lchash ishlari o'tkazildi va aniq koordinatalar hisoblandi, bu esa marksheyderlik ishlarida punktlarning koordinatalarini aniqlashtirishda foydalanilishi mumkin. CATS geodinamik tarmog'ining "ALMA" punkti uchun Trimble R4 GNSS qabul qilgichi yordamida GNSS o'lchashlari amalga oshirilgan va Gauss-Kryuger proeksiyasida koordinatalar hisoblangan.

Gidrologik stansiyalar va DGTning oriyentirlash punktlari bo'yicha ham tadqiqotlar olib borildi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi hududida DGT o'rnatilgandan buyon, asosiy e'tibor tarmoqni zichlashtirish va regionni xaritalashtirishga qaratildi, biroq barcha regionlar geodezik va yer usti sun'iy yo'ldosh tarmog'i bilan yetarli darajada qamrab olinmagan, masalan, GNSS punktlari Amudaryo va Sirdaryo qirg'oqlarida o'rnatilmagan.

Gidrologik postlarda nafaqat GNSS kuzatishlari, balki nivelirlash ishlari ham amalga oshirildi. GNSS o'lchashlari natijalari va mobil navigatorining ma'lumotlari asosida Gauss-Kryuger proeksiyasida (4-jadval), shuningdek WGS-84 sistemasida ikkita stansiya reperlarining to'g'riburchakli koordinatalari hisoblandi.

4-jadval

Gidrologik postlar koordinatalari

Sana	punktlar	X (m)	Y(m)	H _{wgs84(m)}	post
07.12.19	Osn.rep.	4531887.796	473210.031	213.16	Chinaz
3.10.22	Samanbay	4709192.354	707166.112	47.08	Nukus
3.10.22	Kizketen	4796075.870	715363.777	52.10	Nukus
3.10.22	Niyatbay	4693830.324	719605.309	49.427	Nukus
23.02.21	Tuyamuan	4615397.070	300915.210	64.76	Urgench
21.11.19	Osn.rep.	4530602.470	705955.260	334.20	Djum


Izoh: Koordinatalar muallif tomonidan hisoblangan

Barcha tashkil qiluvchilar uchun o'lchangan koordinatalarning o'rtacha qiymatlari deyarli bir xil tendensiyaga ega, bu qisqa vaqt oralig'ida teng aniqlikda bajarilgan o'lchashlarni ko'rsatadi. Ushbu o'lchashlarning geometrik qiymati PDOP 0,8-1,9 oralig'ida o'zgarib turadi. Bu nafaqat osmondagi sun'iy yo'ldoshlarning

konfiguratsiyasiga, balki toposentrik koordinatalarning E , N , U tashkil etuvchilari bo'yicha aniqligiga va og'irlik birligining o'rta kvadratik xatosi σ_0 ga ham bog'liq:

$$PDOP = \frac{\sqrt{\sigma_E^2 + \sigma_N^2 + \sigma_U^2}}{\sigma_0} \quad (7)$$

Nukus shahridagi gidrologik postlardan birida o'tkazilgan GNSS o'lchashlari natijalari, to'g'ri burchakli koordinatalar va asosiy reper balandliklarining dispersiyasi geodezik o'lchashlar uchun talab qilinadigan aniqlik doirasida ekanligini ko'rsatdi (6-rasm). Texnologiya to'siqlarning yo'qligi aniqlik talabga mos holda $\pm 5-6$ mm bo'lishiga olib keldi. Punktlar koordinatalarining aniqligini batafsil o'rganish uchun o'lchashlar turli iqlim sharoitlarida va turli GNSS qabul qilgichlar bilan amalga oshirilishi kerak.



6-rasm. "Samanbay" gidropostni koordinatalarining o'zgarishi

